

“BIOLOGIYANING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR”

Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2023-yil 25-noyabr.

DALACHOY O‘SIMLIGINING 1001 DARDGA DAVO XUSUSIYATLARI

Djumayev Xudoyberdi Kurbandurdievich, b.f.n., dotsent.

Termiz davlat pedagogika instituti

Ziyodova Munisa Mirza qizi, Aliyorova Dilrabo Fayzullo qizi.

Termiz davlat pedagogika institutining

Biologiya yo‘nalishi 3- bosqich talabalari.

Email: munisa.ziyodova@mail.ru Termez, Uzbekistan

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston hududida o‘sovchi teshik dalachoy (*Hypericum perforatum*) osimligining morfologik tuzilishi, dorivorlik xususiyati, qo‘llash mumkin bo‘lgan va bo‘lmagan holatlar haqida malumot keltirilgan.

Kalit so‘zlar: quritilgan, damlama, dermatologiya, saraton, stress, davo, efir moyi, smola, vitamin, miqdor.

1001 ЛЕКАРСТВЕННОЕ СВОЙСТВО ЗВЕРОБОЯ ПРОДЫРЯВЛЕННОГО.

Аннотация: В данной статье представлена информация о морфологическом строении, лечебных свойствах, условиях возможного и неприменения растения зверобоя продырявленного, произрастающего в Узбекистане.

Ключевые слова: сушеные, настойка, дерматология, рак, стресс, лечение, эфирное масло, смола, витамин, количество.

1001 DISEASE TREATMENT PROPERTIES OF HYPERICUM PLANT

Annotation: This article provides information on the morphological structure, medicinal properties, possible and non-use conditions of the *Hypericum perforatum* plant growing in Uzbekistan.

Key words: dried, tincture, dermatology, cancer, stress, treatment, essential oil, resin, vitamin, quantity.

Dalachoy (*Hypericum L.*) Dalachoydoshlar oilasiga mansub o‘t yoki chalabuta ko‘rinishida yer yuzida 200 ga yaqin O‘zbekistonda choycho‘p dalachoy, choyo‘t dalachoy va qizilpoyacha deb yuritiladigan bir turkumga mansub 3 ta turi uchraydi. Dalachoyning ildizi o‘q ildiz tizimli, o‘t poyasi tik o‘sovchi, barglari oddiy, yaxlit ko‘pchiligi qarama-qarshi joylashgan. Gullari sariq ikki jinsli, gulkosacha barglari yarmigacha qo‘shilgan changchilari juda ko‘p, o‘zaro qo‘shilib o‘sgan. Urug‘chisi bitta, 3-5 uyli. Mevasi ko‘sakcha. Iyun-iyulda gullab sentabrda pishadi. Dalachoydoshlar oilasi vakillarining barchasi tanasida ko‘p miqdorda efir mohini to‘playdi.

“BIOLOGIYANING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR”

Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2023-yil 25-noyabr.

Ajratib olingan efir moylaridan farmakologiya, meditsina va kosmetologiyada foydalaniladi. Mamlakatimizning adir va tog‘larida o‘sovchi Teshik dalachoy (*Hypericum perforatum*) yuz yillardan buyon shifobaxsh giyoh sifatida foydalanib keladi. Bo‘yi 30-35 santimetr, ba‘zan 1 metrga yetadi. 15-20 santimetr uzunlikda qirqib olingan poyasi quritilib yanchiladi, so‘ngra g‘alvirdan o‘tkaziladi. Yirik poyalari tashlab yuboriladi. Dalachoy giyohining tarkibida flavanoidlar, efir moylari, vitaminlar, smolalar, qand, bo‘yoq, oshlovchi va C vitamin bor.

Qo‘llash usullari: Bir stakan suvga 2 choy qoshiq quritilgan dalachoy poyasi solinadi. 10-15 daqiqa damlab qo‘yilgandan so‘ng sovuq yoki issiq holda ichish mumkin. Davolash muddati 5-haftagacha har kuni 1 stakan miqdorda ovqatdan oldin ichiladi. Zarurat bo‘lganda orada 2 hafta tanafus qilib qayta ichishda davom etsa bo‘ladi.

Tayyorlangan damlamani quyidagi davolash usullarida ichish tavsiya etiladi.

- Saraton hujayralarini ko‘payib ketishini oldini olish.
- Gripp va shamolashda.
- Bosh og‘rig‘ni qoldirishda.
- Balg‘amni tez ajralishiga yordam beradi.
- Isitmani tushirishda.
- Oshqozon ichak tizmining ish faoliyatni meyorlashda.
- Mushaklar va tana og‘irligini qoldirishda.
- Ishtahani ochishda.
- Dermatologik muammolarda.
- Uyqu buzilish va uyqusizlikda.
- Tanadagi mikroob va bakteriyalarga qarshi kurashishda.
- Stressdan chiqishda.
- Psixologik buzilishlarni davolashda.
- Peshob haydashda.
- Qalqansimon bez gormonining ishini meyorlashda.
- Efir moyidan kosmetologiyada foydalaniladi.

Ammo dalachoy damlamasini quyidagi hollarda qo‘llash mumkin emas:

Diqqatli bo‘ling? Yurak astmasi; Bronxial astmada; Alstgeymerda; Bepushtlikda, shizofreniya kabi kassaliklar bilan og‘riganda Antiagregant va anesteziologik dori vositalaridan foydalanish chog‘ida qat‘iyan man etiladi. Shuningdek homiladorlik davrida ham damlamadan foydalanish qat‘iyan man etiladi.

Foydalanish chog‘ida damlamadan ortiqcha miqdorda ichish bosh aylanishi, ko‘ngil aynishi, terida toshmalar toshishi kabi noxush holatlar yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi. Kassaliklar soni qanchalik ko‘p bo‘lmasin tabiatning o‘zi tabib.

“BIOLOGIYANING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR”

Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2023-yil 25-noyabr.

Yuqorida ko‘rib o‘tganimizdek dalachoy damlamasini ichish orqali bir qancha kasalliklarni davolash va profilaktika qilish mumkin. Ammo undan to‘g‘ri foydalanishni bilish zarur. Urug‘i yetib to‘kilmasdan ayovsiz yulinishi tur sonining kamayishiga va ekosistemaning buzilishga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

- 1.Y.Paratov ,Q.Jumayev ‘‘Yuksak o‘simliklar sestimatikasi’’ Toshkent 2003 yil
- 2.S.S.Saxobidinov ‘‘O‘simliklar sistematikasi’’ Toshkent 1996 yil
- 3.E.S.Sulaymonov, Q.X.Haydarov, M.A.Hasanov,X.H.Jalov, A.Q.Axmedov, Y.SH.Toshpo‘latov ‘‘Botanika fanidan o‘quv dala amaliyoti uchun’’ Toshkent 2015 yil
- 4.M.Nabiyev ‘‘Shifobaxsh giyohlar’’ Toshkent 1980 yil
- 5.K.Xoliqov O‘zbekiston janubidagi dorivor o‘simliklar 1992-yil
- 6.O‘z ME Birinchi jild Toshkent 2000 –yil.
- 7.Xarkevich D.A „Farmakologiya" Meditdina.2005
8. Internet ma'lumotlari.
www.ziyonet.uz